## IX.ISTE'MOL BOZORI

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 14 274,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020 yilning shu davriga nisbatan 8,3 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 2 969,9 mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11 304,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi,** *mlrd. so'm*




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri 43,1 %, Urgut tumani 9,4 %, Kattaqo'rg'on shahri 6,5 %, Pastdarg'om tumani 5,3 %, Bulung'ur tumani 4,4 %, Kattaqo'rg'on tumani 3,9 %, Samarqand tumani 3,7 %, Ishtixon tumani 3,6 %, Payariq tumani 3,5 % va Jomboy tumani 3,2 % chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi,** *% da*




Viloyatda aholi jon boshiga 2021 yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3 588,0 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 6,2 % ga ko‘paydi. Asosan aholi jon boshiga eng yuqori ko‘rsatkichlar Samarqand shahri (10 804,1 ming so‘m), Kattaqo‘rg‘on shahri (10 302,0 ming so‘m) va Bulung‘ur tumanlarida (3 268,6 ming so‘m) kuzatildi.

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

| | *Hajmi, ming so‘mda* | *O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da* |
|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha** | **3 588,0** | **106,2** |
| Samarqand sh. | 10 804,1 | 104,2 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 10 302,0 | 107,4 |
| tumanlar: | | |
| Bulung‘ur | 3 268,6 | 105,6 |
| Jomboy | 2 582,6 | 106,6 |
| Ishtixon | 1 990,9 | 108,3 |
| Kattaqo‘rg‘on | 2 045,2 | 109,8 |
| Narpay | 1 968,8 | 105,2 |
| Nurobod | 1 819,4 | 107,7 |
| Oqdaryo | 2 120,3 | 106,4 |
| Payariq | 2 041,1 | 109,7 |
| Pastdarg‘om | 2 134,9 | 107,8 |
| Paxtachi | 1 747,5 | 107,3 |
| Samarqand | 2 041,1 | 106,4 |
| Urgut | 2 611,6 | 108,3 |
| Toyloq | 2 016,1 | 118,0 |
| Qo‘shrabot | 1 790,2 | 111,0 |

Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari kuzatilib, o‘tgan yilga nisbatan yuqori o‘sish sur’ati Kattaqo‘rg‘on, Payariq, Toyloq va Qo‘shrabot tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari,** *% da*




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik savdo korxonalarning hajmi 2 969,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ni tashkil qildi va umumiy savdo hajmining 20,8 foizini tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 11 304,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 10,0 % ga ko‘paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,2 % ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi,** *% da*



**Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi**

| | *Hajmi, mlrd. so'm* | *2020 yilga nisbatan, % da* | *Yakunga nisbatan, % da* |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **14 274,1** | **108,3** | **100** |
| *shu jumladan:* | | | |
| davlat mulki | 0,8 | 51,0 | 0,01 |
| nodavlat mulki | 14 273,3 | 110,4 | 99,99 |

**2021 yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi**

| | *Hajmi, mlrd. so'm* | *2020 yilga nisbatan, % da* | *Yakunga nisbatan, % da* |
|---|---|---|---|
| **Chakana tovar aylanmasi** | **14 274,1** | **108,3** | **100** |
| *shu jumladan:* | | | |
| Yirik korxonalar | 2 969,9 | 102,1 | 20,8 |
| Kichik va mikrofirmalar | 3 857,1 | 107,2 | 27,0 |
| Norasmiy sektor | 7 447,1 | 111,5 | 52,2 |

**Chakana savdo tarkibi,** *% da*




Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 328,8 mlrd. so'mni yoki 2020 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 123,4 foizni tashkil etdi.